

## TASAVVUFIY AN'ANALAR VA MODERNISTIK TAFAKKUR SINTEZI

**Esanboyeva Umida Esanboyevna,**

O'zMU 4-kurs talabasi

Email: [Esanboyevnaumida@gmail.com](mailto:Esanboyevnaumida@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining o'ziga xos vakili Bahrom Ro'zimuhammad ijodi misolida tasavvufiy an'analar va modernistik tafakkur tamoyillarining o'zaro sintezi tadqiq etiladi. Tadqiqot markazida shoir she'riyatidagi lirik "Men"ning ontologik bo'linishi, "Soxta men" va "Asl men" (U) o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar tahlili turadi. Tasavvufiy "nafs" tushunchasining zamonaviy inson ruhiyatidagi intellektual va hissiy qiyofalari, uning "nur" va "ishq" ta'sirida "istig'roq" holatiga erishish jarayonlarini badiiy matn tahlili orqali ochib beriladi. Shuningdek, maqolada an'anaviy irfoniy timsollarning semantik transformatsiyasi, "sukunat rejimi" va "o'zlikni anglash" bosqichlarining modernistik she'riyatdagi polifonik talqinlari ilmiy asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf va modernizm, Nafs va Ruh, Semantik transformatsiya, Istig'roq, O'zlikni anglash, Polifoniklik, tafakkur, Uchlik, Hokku.

**Аннотация.** В данной статье на примере творчества видного представителя современной узбекской поэзии Бахрома Розимухаммада исследуется синтез традиций классического суфизма и принципов модернистского мышления. В центре исследования стоит анализ онтологического разделения лирического «Я» в поэзии поэта конфликтных отношений между «Ложным я» и «Истинным я» (Оно). Автор через анализ художественного текста раскрывает современные интеллектуальные и эмоциональные облики суфийского понятия «нафс» (эго), а также процессы достижения состояния «истиграк» (погружения) под воздействием «света» и «любви». Кроме того, в статье научно обосновываются семантическая трансформация традиционных ирфанских символов, «режим тишины» и полифонические интерпретации этапов самопознания в модернистской поэзии.

**Ключевые слова:** Суфизм и модернизм, Нафс и Дух, Семантическая трансформация. Истиграк, Самопознание, Полифоничность мышления, Трехстишие, Хокку. Мапа, ta'lumotlaringizning rus va ingliz tillaridagi ko'rinishi.

**Abstract.** This article explores the synthesis of classical Sufi traditions and modernist thought principles through the lens of Bahrom Rozimuhammad's poetry, a prominent figure in contemporary Uzbek literature. The research focuses on the ontological division of the lyrical "Self" specifically the conflictual relationship between the "False Self" and the "True Self". Through literary analysis, the author reveals the modern intellectual and emotional manifestations of the Sufi concept of "nafs", as well as the processes of achieving "istighraq" under the influence of "light" and "love". Furthermore, the article provides a scientific basis for the semantic transformation of traditional irfanic symbols, the "silence regime", and polyphonic interpretations of the stages of self-realization within modernist poetic structures.

**Keywords:** Sufism and Modernism Nafs and Spirit, Semantic Transformation, Istighraq, Self-realization, Polyphonic Thinking, Tercet, Haiku.

**Kirish.** Tasavvuf inson ruhiyatining sofligi, xolisligi va nafs tarbiyasiga yo'naltirilgan ma'naviy ta'limotdir. Uning asosiy maqsadi nafsni jilovlash orqali ilohiy haqiqatga –Yor vasliga yetishishdir. Tasavvuf – xolislik ta'limi. Tasavvuf – soflik. Tasavvuf – riyosizlik "taqviy" si. U "Qullikka belni mahkam" etishga chorlasa-da, Haq qullarning naqadar aqliy, ma'naviy, axloqiy imtiyozga ega ekanligini amalda isbotlaydi. Tasavvuf – muomala madaniyati. U til va dil yumshog'ligiga, o'zgalardan keladigan ranju ozorlarni halimlik bilan g'azab va adovat pichog'iga sira qo'l cho'zmasdan bartaraf

qilishga o'rgatadi [1:6]. Mumtoz adabiyotimizda, xususan, Alisher Navoiy ijodida tasavvufiy g'oyalar ustuvorlik qilgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu an'analar zamonaviy she'riyatda yangicha shakl va mazmun kasb etmoqda. Mazkur maqolada an'anaviy tasavvufiy timsollarning Bahrom Ro'zimuhammad ijodi misolida hozirgi davr kishisi ruhiy ehtiyojlarini ifodalashdagi o'rni va ularning semantik transformatsiyasi tahlil qilinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik tahlil, germenevtik talqin va biografik metodlardan foydalanildi. Bahrom Ro'zimuhammadning "Terakka yaqin yulduz" va "Kunduz sarhaddari" to'plamlaridagi she'riy turkumlar tasavvufiy terminologiya hamda modernistik badiiy uslublar sintezi nuqtayi nazaridan o'rganildi.

**Tahlillar va natijalar.** Bahrom Ro'zimuhammad ijodida tasavvufiy timsollar (ishq, nur, nafs) an'anaviy qobiqdan chiqib, zamonaviy inson ruhiyatini aks ettiruvchi yangi semantik transformatsiyaga uchragan. Shoir "Soxta men" va "Asl men" ziddiyati orqali komillikka intilish jarayonini modernistik va falsafiy mazmun bilan boyitadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, shoir qo'llagan ramziy uchliklar tasavvufiy hayratni intellektual polifoniya darajasiga ko'tarib, o'zbek she'riyatida o'ziga xos ruhiy makon yaratgan. O'z meni-nafsini yengib o'zgalar haqida ham o'ylash bu komillikka yetishning eng asosiy talablaridan biri hisoblanadi. O'z nafsini bilan kurashgan chog'langan inson o'zini anglay boshlaydi. Yashash haqiqatlarini tushuna boshlaydi. Bu jarayon shoirning "Kunduz sarhaddari" saylanma-to'plamiga kiritilgan "Uning ko'zlari" turkumiga 2-she'rida shunday ifodalandi.

Seni unutmog'im uchun  
men avval o'zimni unutmog'im shart  
bu ishga erishdim men asta-asta  
qandaydir bo'shliqda so'ng suzib yurdim  
sehrli nigohingiz himoyasida  
bir aylanib asliga qaytdi-ku Ruh  
qaytada tiklandi yana O'zligim  
endi qo'l urmasman behuda ishga[5:74]

Lirik qahramon U ni yaxshi biladi. Uni unitish uchun ang avval o'zini unutmog'i kerak. Unutdi. So'ng Uning hech kim ekanligini angladi. Bo'shliqda his qildi o'zini. Bu absurd belgilaridan biri. Hamma narsada ma'no ramz izlanadi, ammo topilmaydi. Shunda U lirik qahramonga bir nigoh soldi. Shunda, butun dunyo o'zgarib ketadi. Asli butun dunyo inson botinidagi o'zlik-men o'zgarishi natijasi edi. Lirik qahramonning Ruhi qayta, yangilangan formatda tiklandi. Endi u nima qilish kerakligini biladi. Shu sababdan ham endi behuda ishga qo'l urmasliklikka qaror beradi. Endi u Unga yetishga talabgor. Talabgor inson esa komil inson bo'lmog'i zarur. Komillika erishish yo'lida nafsini bilan kurashmoq, tabiiy hol. Bu hol boshqa bir she'rida yanada yaqqol ko'zga tashlanadi:

O'zimga erishib oldim men

yashirinib olgach U ga aylandim  
soxta Men qoldi mening o‘rnimda  
U miya kataklariga yaqin yo‘lamas  
yurakning yaydoq burchagida bir  
uzala tushib yotar jimgina

Insonda ham aqliy, ham hissiy idrok mavjud. Lirik qahramon aqliy idroki hissiy menini yenggan. Shuning uchun uni yurakka bandi qilgan. Endi u faqatgina aqlga tayanib ish tutadi. Ammo o‘sha aqliy idrok bilan ish tutuvchi menlikni “soxta men” deya nomlaydi shoir. Aqli bilan bajarilgan ishlar sohta bo‘lmasligi mumkin, ammo u shoirning xohish istaklari ko‘ra bajarilmaydi. Shu sababdan, soxta hisoblanadi.

U ning hech kim bilan ishi yo‘q  
U tobora yasharar  
toboro yarqirab borar kumushdek  
qayrilib qaraydi Soxta men  
naqadar shaffofsan deydi  
naqadar shaffof  
joyingdan qo‘zg‘olma yashayman desang

Hislar kim bilandir hisoblashib his qilinmaydi. Shunga ko‘ra individual. Qalbini hammadan yashirib asraydigan lirik qahramonning qalbi tobora yaraqlay boshlaydi. Kumushday oqarib yaltiraydi. Asl mohiyatning tozaligi va vaqt o‘tgan sayin eskirish o‘rniga yasharib borishi uning boqiyiligiga ishoradir. Bu bir tarafdin zo hidlarning uzlatga chekinishi bilan bog‘liq. Insonlardan qanchada uzoqlashsang, maqsadingga “Yor”ga shuncha tez erishasan.

Lirik qahramonda ikkita men bir. Ikkalasi ham shaffof, ko‘zga ko‘rinmaydi. Shuningdek, aqliy idrok ham, hissiy idrok ham o‘z o‘rnida o‘z ishini qilgani ma’qul. Biri birining ishiga aralashsa(joyidan qo‘zg‘olsa) yashashi– dargumon. Aql bilan qaror qabul qilinish kerak bo‘lgan joyda his bilan, his bikan qaror qabul qilinishi kerak bo‘lgan joyda aql bilan qaror qabul insoni xarob qiladi. Har ikkisini bilan ham muvozanatni saqlash kerak degan fikr ilgari suriladi. Ikki men insonning shuurida kechadigan ichki kurashlarni ifodalaydi.

U jilmayadi  
“Sen ham shunday qil  
bizni fosh etarlar aks holda”  
Soxta men uzoq jim yurdi  
faqat bir ayolni uchratgunicha  
o‘sha ayol shahlo ko‘zlari-lar termuldi unga [5:86]

Ishq yoki chinakam insoniy nigoh ko‘pincha barcha ijtimoiy niqoblarni (Soxta menni) teshib o‘tib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri “U”ga, ya’ni shaffof mohiyatga yetib boradi. Soxta

men uzoq jim yurishi mumkin edi, biroq samimiy nigoh qarshisida “U”ni yashirish imkonsiz bo‘lib qoladi.

ichki sezgi bilan nenidir bildi

U derazadan qaragan misol

baravar qaradi ikkita ko‘zdan

o‘zini ko‘rsatmaslikka urindi

biroq bo‘lmadi

U sezgi orqali nimadir bilishi aqliy idrokdan ustun bo‘lgan haqiqatni angladi.. Tashqi dunyoda Soxta men darajasida hali hech narsa sodir bo‘lmagan bo‘lishi mumkin, lekin ichki dunyo kelajak “xavf”ni yoki o‘zgarishni sezib ulgurdi. Odatda dunyoga Soxta men qarayotgan edi, endi esa ichkaridagi hissiy idrok ham o‘sha ko‘z teshiklariga kelib joylashdi. Ichki va tashqi olamning bitta nuqtada, nigohda to‘qnashishi aks ettirgan. inson o‘zini qancha uzoq sukunat rejimida saqlamasin, baribir shunday muhabbat, nigoh, haqiqat topiladiki, u bizni o‘zimizga erishishga va fosh bo‘lishga majbur qiladi.

shahlo ko‘zning shu‘lalari tushdi ustiga

nurdan shalabbo bo‘ldi uning badani

sekingina

yurakka tushdida

hayolga cho‘mdi.

Odatda, suv bilan yonma-yon ishlatiladigan “shalabbo” so‘zning nurga nisbatan qo‘llanilishi, nurning shunchaki sirtida qolmagani, balki hissiy idrokni ham egallab olganini anglatadi. Bu holatda “Soxta men”ning qobig‘i erib ketadi. Nur shunchalik kuchliki, u endi yashirinishga joy qoldirmaydi. She‘riyatda nur ko‘pincha ilohiy ishq yoki mutloq haqiqat timsoli sanaladi. “Shahlo ko‘z” esa o‘sha haqiqatning ko‘zgusi vazifasini o‘tamoqda. Tasavvufda esa nur Allohning tajalliysi namoyon bo‘lishidir. “Badanning nurdan shalabbo bo‘lishi” bu lirik qahramonning o‘z moddiy borligidan kechishi. Badan endi tuproqdan emas, balki ilohiy nurdan iborat bo‘lib qoldi. Bu holat tasavvufda istig‘roq–g‘arq bo‘lish deb ataladi. Ya‘ni, Menlik butkul erib, borliq faqat Nurdan iborat ekani ayon bo‘ladi. Bu Mansur Xalloyning “Anal-Haq”degan fikr mushtarak. Ya‘ni Haq bittadir. Bu shunday izohlanadi: bir jomga ichimlik quyilarkan, jom va ichimlikning rangi bir-biriga qarishadi, shunda jom haqida emas, faqat ichimlikning borlig‘i haqida so‘z yuritiladi. Qalbida Alloh tajallisini ko‘rgan bir valiy ba‘zan tajalli yeri bo‘lgan qalbni ko‘rmas, faqatgina unda tajalli etgan Haqni ko‘rar va shunda “Anal-Haq” der. Bundan maqsad valiyning o‘z borlig‘in yo‘q sanab, Haqning borlig‘ini tilga olmoqdir. She‘rda ham tajalliy ya‘ni o‘sha nur soxta menni yoq qildi. Ichki, yurakda uzana tushib yotguvchi menga yetib bordi. Va lirik qahramonda faqat o‘sha mengina qoldi.

**Xulosa.** Shoir darveshona “nur”, “ishq”, “vasl” kabi tasavvufiy kalimalarni zaminaviy tajribada qo‘llaydi. Yuqoridagi she‘rdagi kabi o‘z diniy-ma‘rifiy ma‘nosini saqlagan holda o‘zlikni anglash mazmuniga evriladi. Masalan: nur asosan ilohiy

ma'rifatni anglatsa yuqoridagi she'rda muhabbat sifatida namoyon bo'ladi. Shu tarzda shoir semantik ko'pqatlilik yaratadi. Bu holat modernistik she'riyatda polifonik fikrlashni aks ettiradi.

Bahrom Ro'zimuhammad ijodi an'anaviy obrazlarni zamonaviylashtirilishi bilan ahamiyatli. An'anaviy tasavvufiy timsollar yangilanadi. Natijada irfoniy obrazlar hozirgi odamning ruhiy ehtiyojini qondirguvchi vazifasini o'taydi. Bu esa semantik transformatsiya hisoblanadi. Shoir ijodida tasavvufiy metarofik qatlam ruhiy-psixologik tahlil vositasiga aylanib ketadi. Shu boisdan shoir ijodi tasavvufiy an'ana va modernistik yonalish birikuvi sifatida o'zbek she'riyatida o'ziga xos falsafiy-ruhiy makon yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. –T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.–184 b.
2. Komilov N. Tasavvuf. –T.: O'zbekiston, 2009.–447 b.
3. Haqqulov I. Tasavvuf saboqlari (O'quv qo'llanma). –B.: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2000. – 144 b.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Noshir, 2019.–336 b.
5. Ro'zimuhammad B. Terakka yaqin yulduz. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1889.
6. Ro'zimuhammad B. Kunduz sarhadlari. –T.: Mehnat, 1999.–78 b.
7. Ro'zimuhammad B. Ikki nur. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1994.–79 b.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934